

## MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING ASARLARIDA SUVNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Zafar Yunusovich Adilov

Ma'mun universiteti Falsafa kafedrasi mudiri, dotsent, f.f.f.d. (PhD)

ORCID:0009-0003-1363-2904

[zafaradilov68@gmail.com](mailto:zafaradilov68@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning asarlarida suvning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Mahmud az-Zamaxshariy asarlari ichida alohida o'ringa ega bo'lgan "Rabi'al-abror" shu davr Xorazm vohasi madaniyati va insonlarning – ijtimoiy-ma'naviy olami, shu bilan birgalikda jamiyatning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy tomonlarini haqidagi qarashlari tahliliy asosida ohib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson, ilm, bilim, musulmon tana, ruh, tinchlik, faravonlik, notiqlik, rivoyat va umir.

### ABSTRACT

In this article, "Rabi'al-abror", which is considered a very rare work written by Mahmud az-Zamakhshari, reveals the culture and social-spiritual image of people of this period, as well as the social-philosophical, economic-political aspects of society. together with giving, based on the characteristics of this period, the characteristics of the development of the Khorezm region are revealed. At the same time, Mahmud al-Zamakhshari's place in the world of science, his views that science can glorify man and raise him to the level of perfection are revealed on the basis of analysis.

**Keywords:** Human, philosophical, mystical, religious, worldly, science, knowledge, Muslim body, spirit, peace, wisdom, eloquence, narration and life.

### KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xorazm vohasi va allomalari haqida 2017 – yilgi saylovchilar bilan bo'lgan uchrashuvda shunda fikr bildirib o'tgan, "Xorazm vohasi shunday xosiyatli bir yurtki, uning har qanday odamni ham o'ziga tortadigan beqiyos sehri, jozibasi bor. Chunki, Xorazm deganda, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, milliy davlatchiligidan tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ko'z oldimizga keladi. Shaxsan men qachonki bu zamin tuprog'iga qadam qo'ysam, ko'hna tarix sirlaridan ogoh bo'lgandek, ko'p hayotiy hikmatlarning mag'zini chaqqandek bo'lamon. Xorazm haqida so'z yuritganda, mashhur shoirimiz Omon Matjonning mustaqilligimizdan oldin yozgan bir she'ri yodimga tushadi. U kishi "Nega Xorazmda tog'lar yo'q?" degan savolni

qo‘yib, “Xorazmning buyuk tog‘lari bor – bu Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Feruzlardir”, deb javob beradi. Bugun biz cheksiz g‘urur va iftixor bilan bu ro‘yxatga Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Hofiz Xorazmiy, Sulaymon Boqirg‘oniy singari ulug‘ ajdodlarimizning qutlug‘ nomlarini ham qo‘sib aytishga to‘la haqlimiz”[1].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Xorazm vohasi nafaqat allomalar, davlat arboblar, sarkarda va sarvarlar yurti bo‘lish bilan birgalikda nodir asarlar tug‘ilgan qadimiy diror hamdir, Mahmud az-Zamaxshariy shular sirasiga kiruvchi buyuk allomadir

Qomusiy ilmlar sofiibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan Zamaxshariy[2-B.261-262] o‘z davrining yetuk ilm sohiblaridan bo‘lgan. Buni uning bizga bitib qoldirgan hamda yetib kelgan 50 ga yaqin asarlari oqali bilib olishimiz mumkin.

Mahmud az-Zamaxshariyning dunyoqarashi, islom dini qaror topganigacha mavjud bo‘lgan turli xalqlarning diniy-falsafiy fikrlari bilan boyigan g‘oyalar va ularning urf-odatlari ta’sirida shakllanib, diniy aqidalarni aql tarozusi va mantiq uslublari bilan yoritishga qaratilgan yetuk alloma edi.[3-B.299-300]

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Az-Zamaxshariy ham aqlni olqishlaydi, «Har qanday mushkul ish aql tufayli isloh qilinur. Shuning uchun ezgulik xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman, degan o‘ylardan voz kech, shayton yo‘ldan uradigan shoshma-shosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut[3].

Insonning o‘z xatti-harakatida aql amriga qarab ish tutishi, umuman aql-idrok va tafakkurning o‘rni ayniqsa, allomaning ilmni egallash, ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Alloma aql borasida “Rabi’ ul-abror” (“Yaxshilar bahori”) asarining “Aql, zehnlilik, zukkolik, mustaqil fikrlash, tadbirkorlik” nomli bo‘limida, payg‘ambar Muhammad alayhissalomning aqlga bergan fikrlari bilan boshlaydi. “Aql qalbdagi nurdir, u bilan botil va Haq orasi ajratiladi”. Alloma aqlini ta’riflab, shunday yozadi: “Oqil o‘z aqli bilan yashaydi, xuddi arslon o‘z kuch-quvvati bilan yashagandek, har bir narsa aqlga muhtoj, aql tajribaga muhtojdir”.[4 -75]

“Rabi’al-abror” qo‘lyozmasi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Aqademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi. Qo‘lyozma № 2384. 33a varaq. (Bundan keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Aqademiyasi Sharqshunoslik Inistituti. Q.№ 2384. 1a varaq. shaklida.)

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mahmud Zamaxshariy asarda 10 ta (“Al-Ishtiqoq”, “Al-Anvoi”, “Jovidoni xirad”, “Al-Shomil”, “Kitabu Sibavayh”, “Sahifat ar-Rida”, “Kalila va Dimna”, “Al-Masolik va al-mamolik”,

“Al-Yaqutat” va “Al-Yatimma”) manba nomini zikr etsada, boshqa nomi keltirilmagan ko‘plabmanbalardan unumli foydalanadi. Ularning nomi keltirmaganligi o‘z davrida barchaga ma’lum bo‘lgan asarlar ekanligi va ularni o‘quvchiga qayta eslatish ehtiyoji yo‘qligi bilan izohlanadi.

Mahmud Zamaxshariy foydalangan yozma manbalarni asosini diniy, tarixiy-jug‘rofiy va adabiy manbalar tashkil etadi.

Mahmud Zamaxshariy kitobxonning ishonchini oshirish maqsadida Qur’oni Karimning ayrim suralaridan oyatlar keltiradi. Bu uslub o‘rtalarda yozilgan barcha asarlarga xos bo‘lgan xususiyatdir. Shundan so‘ng Hadisi qudsiydan, Hadisi Nabaviydan, ahli baytdan va shundan so‘ng qolgan boshqa payg‘ambarlarning so‘zlarini sahabalar, tobe’inlar orqali naql qilinadi. Shuningdek, Tavrot, Zabur va Injil muqaddas kitoblaridan ham foydalanadi. Jumladan,

Tavrotda shunday yozilgan, “Omonatdor kishi xayrli umr kechiradi”.

Talqa ibn Habib Dovudning Zaburida shunday deydi: “Agar bandalarimdan so‘rasang, yaxshilikni so‘ra, ulardan xursand bo‘lib qaytasan, agar yomonlikni so‘rasang, xafa bo‘lib qaytasan”.

Injilda shunday yozilgan, “Devorga uriladigan bitta bo‘lsa ham harom yo‘l bilan kelgan g‘isht o‘sha devorning xarob bo‘lishiga nishonadir”.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, minglab iqtiboslarni to‘plab, uni kitob holiga keltirgani Mahmud Zamaxshariyning nechog‘li o‘tkir zehni, kuchli xotira va chuqur bilim sohibi ekanligidan dalolat beradi. Yurtimizda savet tuzumi davrida xalqimizning ma`naviy merosi bo`lgan qo`lyozmalarni to`plash ular ichidagi ma`lumotlardan xabardor bo`lish harakatlari sifatida

Mamlakatimizda qo`lyozmalarni tafsiflash borasida birinchi qadam sifatida 1952 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “FAN” nashriyotida nashrdan chiqarilgan “Sobranie vostochnix rukopisey Akademii nauk UzSSR” (“O‘zSSR Fanlar akademiyasining Sharq qo`lyozmalarini to‘plami”) nomli monografik katalogini e’tirof qilish lozim.

“Rabi’al-abror”ning O‘zbekistondagi qo`lyozma nusxalari O‘zbekiston Musulmonlari idorasi kutubxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat Axborot – kutubxona markazi Sharq fondlarida saqlanmoqda.

O‘zbekiston musulmonlar idorasi va Buxoro qo`lyozma nusxalari ilk marta tadqiqot manbai sifatida ilmiy istifodaga kiritilmoqda.

O‘zbekiston Musulmonlari idorasi kutubxonasida 1490-inventar raqam ostida “Rabi’al-abror” asarning nodir bir nusxasi saqlanadi. Qo`lyozma o‘lchovi 26,5x17 sm.

Qo`lyozma jami 402 varaq (804 bet)dan iborat. Har bir betda 22 qatordan matn joylashtirilgan. Faqat birinchi bet bosmali hamda birgalikda 16 satr, so‘nggi bet esa 21 satrdan iborat.

“Rabi’al-abror” asari qo‘lyozmasining boshqa bir nodir nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 2384-inventar 74-raqamda saqlanadi. Qo‘lyozma o‘lchovi 28x18 sm. Qo‘lyozma holati eski, varaqlarining aksariyat qismini qurt teshgan. Mazkur nusxa 376 (1b-376a) varaqdan (752 bet) iborat. Qo‘lyozma betlarida 25 satrdan iborat matn joylashtirilgan. Qo‘lyozmadagi fixristida shunday ma’lumotlar berilgan: “Bu Rabi’ al-abror kitobi Al-Kashhof muallifi bo‘lgan imom, alloma, Xorazm faxri, islom shayxi, Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar Az-Zamaxshariyning asari hamda mazkur asar 81 bobdan iborat”. Biroq fixrist boshida berilganidek, bu nusxa 81 bob emas, aksincha to‘liq 98 bobdan iborat. Fixrist davomini ko‘rgan kishi asarning 98 ta bob nomlari va ular qaysi betlarda sahifalanganini anglashi mumkin.

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat Axborot – kutubxona markazi Sharq fondi katalogida bugungi kunda 128-inventar 75-raqamida asarning yana bir qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda. Ushbu nusxa jami 148 (1a-148a) varaqdan (296 bet) iborat. Qo‘lyozmaga 13 qatordan 20 qatorgacha matn joylashtirilgan. Bu nusxa novvot rangli (to‘q qaymoq rang) qog‘ozda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma nusxaning o‘lchovi 20,5x11,5 sm. Uning muqovasi jigarrang qalin kartondan zinch qilib ishlangan. Qo‘lyozma hijriy 1057 yil (milodiy 1647) rabi’ ul-avval oyining 22 kunida ko‘chirilgan.

Bugungi kunda “Rabi’-al-abror” asarining turli makon va zamonlarda ko‘chirilgan 50 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari xorij kutubxonalarini, fondlari va muzeylarida saqlanmoqda.

“Rabi’u-l-abror va nususu-l-axyor” (“Yaxshilar bahori va fozillar axbori”). Asarning to‘rt jilddan iborat bo‘lgan bir qo‘lyozmasi Bag‘doddagi al-Avqof kutubxonasida (9786 – raqamda), boshqa nusxalari Berlin (8351, 8352, 8353 – raqamlarida), Leydenda (470-raqamda), Qohirada (155-raqamda) saqlanadi.

“Rabi’al-abror” asari muhim tarixiy-jug‘rofiy manba bo‘lishi bilan bir qatorda u jamiyatdagi qator munosabatlarni qamrab olgan muhim ijtimoiy-falsafiy manba ham hisoblanadi.

Asarda ijtimoiy, axloqiy masalalar bilan bog‘liq iqtiboslar mavzu jihatdan keng qamrovli va turli-tuman. Insonning kamoloti uchun zarur bo‘lgan fazilatlar to‘g‘risidagi iqtiboslar asarning katta qismini tashkil qiladi. Keltirilgan iqtiboslarda kishining rivojlanishi, inson bo‘lib shakllanishi, kamolotiga yo‘naltirilgan ta’limiy-tarbiyaviy bog‘liqlikni ko‘rish mumkin.

“Rabi’al-abror” asarida asosan Rasululloh (s.a.v.), sahaba Ibn Ma’sud, donishmand Luqmon Hakim, mashhur arab olimlari va notiqlari Xolid ibn Safvan, Ahnaf ibn Qays, Muhammad ibn Ajlan, Aqsam ibn Sayfii, marvlik olim Ibn Muborak, “Adolat sohibi” unvoni egasi, qadimgi Eron hukmdori Xusrav I Anushervon va uning oqil vaziri Buzurgmexr hamda yunon

faylasuflari Aflatun, Galen va Suqrotlarning iqtiboslari tahlili amalga oshirilgan.

Asarda Luqmon Hakimdan do'stlikka oid iqtiboslar keltiriladi:

Luqmoni Hakim aytadi: "Uch toifali insonlar uch holatda bilinadi, ular g'azab chiqqanda yumshoq va muloyim bo'la oladigan, urushda jasoratli bo'la oladigan va muhtojlik paytda do'st bo'la oladigan insonlardir".

Mahmud Zamaxshariy o'zining e'tiqodidan kelib chiqib, inson taqdiriga oid quyidagi iqtibosni keltiradi:

Rasululloh (s.a.v.): "Go'zal xulq Allohnning rahmatidan, rizoligidan bo'lgan yugandir (jilov), u o'z sohibining burnidan o'tkazilgandir. Bu yugan Allohnning qo'lida, Allah uni yaxshilikka, ezungulikka yetaklaydi, yaxshilik va ezungulik esa, uni jannat sari yetaklaydi. Yomon xulq esa, Allohnning azobidan, g'azabidan yasalgan yugandir va u o'z sohibining burnidan o'tkazilgan. Bu yugan Shaytonning qo'lidadir. Shayton uni yomonlikka undaydi, yomonlik esa o'z sohibini do'zax sari yetaklaydi". Ushbu bayonda Mahmud Zamaxshariy o'z diniy dunyoqarashini ham aks ettirgan, deyish mumkin.

Xusrav I Anushervonning vaziri Buzurgmexr asarning "Taajjub, qiziq voqealar va ajoyibotlar haqida"gi 55-bobida shunday deydi:

Buzurgmexrdan so'rashibdi, "Dunyodagi eng bilimdon inson kim?" U dedi: "Dunyodan kim boshqalardan ko'ra kamroq ta'jub qilsa o'sha inson oqil insondir".

"Rabi'al-abror" asarida berilgan barcha nasihatlar, o'gitlar va ma'lumotlar hozirgi yoshlarning ma'rifikatiga ham xizmat qiladi. Chunki, asar insonning ijtimoiy hayotda yanada madaniyatli va yetuk shaxs bo'lishi uchun bilishi kerak bo'lgan barcha bilimlarni o'zida mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir.

"Aql – az-Zamaxshariyning tafsir qilish uslubi, u bilan nasslarga (Qur'on va hadislar) jilov beradi. U Qur'on ma'nolarining zohiriga (toshiga) qanoat qilmaydi".[5]

Az-Zamaxshariy barcha alloma va ulamolar yuksak va hurmat bilan butun Sharq va G'arb olimlarining "Ustoz ul-arab va-l-ajam", "Faxru Xorazm", "Ustoz ud-dunyo" kabi nomlar bilan ulug'laydilar.

## XULOSA

Mahmud az-Zamaxshariy o'zining asarlari orqali suvni nafaqat hayotiy zaruriyat sifatida, balki chuqur ijtimoiy va falsafiy tushuncha sifatida ham tahlil qiladi. Uning qarashlariga ko'ra, suv hayotning asosi bo'lib, insonlar va jamiyatlar o'rtasidagi aloqalarning barqarorligi va rivoji uchun muhim rol o'ynaydi. Suv tabiiy boylik sifatida tenglik,adolat va axloqiy mas'uliyat bilan bog'liq tushunchalarni ham anglatadi. Az-Zamaxshariy suvni in'om etilgan ne'mat sifatida ko'rgan holda, uni to'g'ri boshqarish va jamiyatdaadolatli taqsimlash zarurligini ta'kidlaydi. Suvning taqsimlanishi atrofida ijtimoiyadolat, teng huquqlilik va insoniy mas'uliyat masalalari yechim topadi. Az-Zamaxshariy falsafiy jihatdan suvni insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning timsoli sifatida tushunadi. U

svuning hayotga bog‘liq har bir mavjudot uchun zarurligini ko‘rsatib, bu orqali insoniyatning bir-biriga bog‘liq va mas’uliyatli hayot kechirishini muhim deb biladi. Shu orqali suv, Zamaxshariy qarashlarida, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning, axloqiy tamoyillarning markazida turadi. Shunday qilib, Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida svuning ijtimoiy-falsafiy tahlili jamiyatning rivoji vaadolatli boshqaruvi uchun chuqur axloqiy va falsafiy tamoyillarni ifodalaydi. Suv – hayotning manbai bo‘lish bilan birga, insoniyatning birligi, ijtimoiy mas’uliyati va ahloqiy majburiyatlarini aks ettiruvchi ramz sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Abu-l-Qosim Mahmud Zamaxshariy. Nozik iboralar. – Т.: Kamalak, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi/ 14.10.2017
3. Po‘latova D.A, Qodirov M.Q, Sulaymonov J.B. Sharq falsafasi va madaniyati. -Т.: «Fan va iexnologiya», 2018, - B. 261-262.
4. Аз-Замахшарий. Ал-Коҳира 1900. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тошбосма №5966, III-том, - Б. 299-300, (араб тилида).
5. Аз-Замахшарий. Нозик иборалар. У.Уватов таржимаси, Камалак, Т.; 1992. 75-б.
6. Аз-Замахшарий. Рабиъ ул-аброр. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар хазинаси. Инд. №2384. 171-бет. (араб тилида).
7. Мусафро ал-Совий ал-Жавний. Замахшарийнинг Қуръонни тафсир қилиш услуби ва унинг иъжозий баёни –Миср, Дор ул-маориф, 1959. 95-бет (араб тилида)